



AN'ANAVIY XONANDALIK DARSLARIDA MUMTOZ MUSIQA AN'ANALARINI O'QUVCHILARGA O'RGATISH.

Hamroyeva Dildora Jo'raqulovna

Abdurauf Fitrat nomidagi Buxoro maqom san'atiga
Ixtisoslashtirilgan maktab-internati I-toifali o'qituvchisi

Samandarova Mavluda Abduvosiyevna

Abdurauf Fitrat nomidagi Buxoro maqom san'atiga
Ixtisoslashtirilgan maktab-internati o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7964863>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 18-May 2023 yil

Ma'qullandi: 20-May 2023 yil

Nashr qilindi: 24-May 2023 yil

KEY WORDS

*maqom, ijro, uslub, mumtoz,
xalq, ohang, joziba, milliy,
aytim, yalla, ashula*

ABSTRACT

Xalqimiz, bastakotlarimiz yaratgan musiqa durdonalari har soniyada – tarbiyada, mehnatda, ijtimoiy munosabatda ma'lum darajada o'z ifoidasini topgan. Milliy musiqa atrofdagi hodisalarni, go'zallikni idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi, nozik did va hur fikr bilan qurollantiradi, ma'naviy olamni kengaytiradi. Shu bois ushbu maqolani "Maqom maktabi o'qituvchilariga An'anaviy xonandalik ijro uslublarini o'rgatish yo'llari haqida so'z yuritdik.

Asrlar osha sayqallanib, o'ziga xos murakkab shakllari, teran mazmuni, jozibador va ohangdor kuylari bilan bizgacha yetib kelgan mumtoz musiqa namunalari hanuzgacha eng sevimli, eng ardoqli xalq asarlari bo'lib kelmoqda. Mustaqillik sharofati bilan o'zbek mumtoz musiqasi nafaqat qayta tiklanib, balki yanada keng rivoj topib, jahon madaniy muhitidan salmoqli o'rin egallab kelmoqda. Respublikamizning ijodiy va ilmiy jarayoniga asos bo'ladigan milliy va umuminsoniy qadriyatlar qatorida asrlar osha bizgacha yetib kelgan mumtoz musiqa namunalari ashula, katta ashula, cholg'u kuy, doston va maqomlar xalqimiz madaniy me'rosida beqiyos o'rin tutadi.

Mumtoz musiqa asarlarining badiiy kuchi – ularning xalq orzu – umidlari, his – tuyg'ulari, fazilarlari, ruhini, dardini o'ziga aks ettirishida tinglovchilarga ham birday yoqimli so'z ohang, soz va kuy mushtarakligidadir. Mumtoz ashula yo'llari va cholg'u kuylarining umrboqiyli ulardagi ma'naviy – ahloqiy ma'noning chuqurligi, musiqiy ohanglarning go'zalligidadir.

Darhaqiqat mumtoz musiqa insonning moddiy – ma'naviy turmush talablari, ehtiyojlari va o'zini qurshab turgan tashqi muhitiga, boshqa kishilarga bo'lgan munosabatlar natijasida, mumtoz she'riyatning va ijrochilik mahoratining rivojida dunyoqarashi, intilishlari va orzu – umidlari musiqa ohanglarida aks etadi. Mumtoz musiqa o'z navbatida quyidagi asosiy janrlar tarkibini tashkil qiladi:

I. Aytim yo'llari:

1. Mumtoz yalla va ashula – har biri rivojlangan kuy, shakl, o'ziga xos mazmun va ijro uslubidan iborat. Bularga lokal (voha) xususiyatlariga ega bo'lgan xalq ashula yo'llari, suvoralar, naqshlar kiradi;

2. Yirik ashula janri bo'lgan katta ashula;

3. Dostonlar – xalq epik janri bo'lib, adabiy matn, she'r musiqadan iborat uch birlik tamoyili bilan ajralib turadi;

4. Maqomlar – o'z navbatida maqom ashula yo'llari va yirik ashula – cholg'u turkumli janr sifatida keng tarqalgan. Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari turkumi va Toshkent – Farg'ona maqom yo'llari kabi turkumlardan iborat.

II. Cholg'u yo'llari:

1. Rivojlangan kuy va shakllardan iborat murakkab ijro uslublari mavjudligi bilan ajralib turuvchi cholg'u kuyi yoki asar hamda cholg'u turkumlari, jumladan, Eshvoy, Eshvoy kurt, Eshvoy turkman, Dilxiroj va Sinaxiroj;

2. Maqom cholg'u yo'llari va turkumlari Cho'li Iroq, Mushkuloti Dugoh, Ajam taronalari, Dutor maqom turkumlari (Xorazmda), Surnay maqom yo'llari – Navo, Chorgoh va boshqalar;

3. Mumtoz ashulalarning cholg'u yo'llari (variantlari) va turkumlari – Tanovar turkumi, Chorgoh turkumi va boshqalar.

Har bir janr o'z mavqei, kuy – ohang tuzilishi, ijro uslubi bilan ajralib turadi. O'zbek mumtoz musiqasi asrlar osha og'zaki tarzda avloddan – avlodga o'tar ekan, bu jarayonda u boyib, xalqning fikr – o'yi, dardi, orzusi, donishmandligini o'ziga mujassamlashtiradi. O'zining an'anaviyligi, buyukligi, ta'sirchanligi, professionalligi, mukammalligi bilan o'ziga xos musiqa san'ati namunasiga aylandi.

Mumtoz musiqamiz namunalarini tinglash va ayniqsa ularni bevosita ijro eta olishi bo'lajak musiqa mutaxassislarida xotirani mustahkamlashga katta ta'sir etadi bu esa mumtoz musiqani o'rgatishda o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarga mumtoz musiqani o'rgatishda yoshlarning avvalo o'z qiziqishlaridan kelib chiqishi lozim deb bilamiz, chunki, o'qituvchi o'quvchilarning ijro imkoniyatlarini inobatga olib asar tanlaydi. O'quvchining o'z qiziqishiga mos asar tanlashda bevosita ishtirok etganda ijro etiladigan o'rganiladigan uning xotirasida yaxshi qoladi. Xotira bu o'ziga xos musiqiy asarlaning o'quvchi miyasida joylashgan zahira ombori hisoblanadi. Zahiradagi asarlarning o'rganish sifati va soni qanchalik ko'p bo'lsa kelajakda hech qiynalmasdan undan foydalanishi imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ayni paytda zahiradagi har bir mumtoz musiqa o'quvchidagi ijrochilik malakalarining shakllanishida o'zining muhim izini qoldiradigan bo'lishi lozim. Bu zahira qanchalik puxta va mustahkam bo'lsa, o'quvchining mumtoz musiqani o'rganish qobiliyati ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Yangi asarni o'rganish jarayonida o'quvchi ilgari orttirgan malakalarini ishga solish bilangina chegaralanmaydi balki yanada yangiroq, yanada murakkabroq unsurlarni yuzaga chiqarish ishtiyoqida bo'ladi. Bu o'z navbatida uning mumtoz musiqaga bo'lgan o'ziga xos yo'llarini o'rganishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017 – 2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017 yil 14 fevraldagi F – 4849 farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining " Xalqaro Maqom san'ati anjumanini o'tkazish to'g'riida"gi 2018 yil 6 apreldagi qarori

3. Sh. Mirziyoyev "Adabiyot, San'at, Madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevori". "Xalq so'zi", 2017 yil 4 avgust.

4. I. Rajaviy "Maqomlar" T.: 2006 yil

5. Yu. Rajabiy "Shashmaqom I – IV tomlar"

6. A. Fitrat “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” T.: 1927 yil
7. O. Matyakubov “Maqomot” T.: 2004 yil
8. O‘lmas Rasulov „An‘anaviy xonandalik o‘qitish metodikasi” T.: 2006 yil
9. O‘lmas Rasulov “Yakkaxon qo‘shiqchilik” T.: 2017 yil
10. www.bilim.uz; www.pedago.uz; www.ziyonet.uz;

